

## QAMCHIBEK KENJA HAYOTI VA IJODI

**Matkurbanova Oygul Mamatsalayevna**

filologiya fanlari bo‘yicha (Phd) mustaqil izlanuvchisi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: [matkurbanova93@mail.ru](mailto:matkurbanova93@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘zining rang-barang, sermazmun ijodi bilan hissa qo‘sib kelayotgan Qamchibek Kenja hayoti va ijodi atroflicha tadqiq etildi. Dastlab ijodini she’riyatdan boshlagan Q.Kenja adabiyotning turli janrlarida qalam tebratdi. Ayniqsa, buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘lini yorituvchi safarnomalari o‘zbek adabiyoti xazinasida muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, ijod bilan qatorda Qamchibek Kenja ma’sul lavozimlarda faoliyat yuritdi. Hozirda yozuvchining ijodi munosib taqdirlanib kelinmoqda.

**Kalit so‘zlar:** adabiyot, ma’naviyat, milliylik, qadriyat, shoir, nasr, hikoya.

## LIFE AND WORK OF KAMCHIBEK KENJA

**Abstract:** In the article, the life and work of Kamchibek Kenja, who has been contributing to the development of modern Uzbek literature with his colorful and rich work, was thoroughly researched.. K.Kenja, who first started his work with poetry, wrote in various genres of literature. In particular, the travelogues of the great king and poet Zahiriddin Muhammad Babur, illuminating the path of life, have become important in the treasury of Uzbek literature. Along with creativity, Kamchibek Kenja worked in responsible positions. Currently, the writer's work is being duly rewarded.

**Key words:** literature, spirituality, nationality, value, poet, prose, story

Shoir, yozuvchi, publitsist Qamchibek Kenja (Kenjaboev) 1946-yili 15-avgustda Andijon viloyatining Izboskan tumanida, Qoradaryo va Toshpichan (hozir Tentaksoy deyiladi) oralig‘ida joylashgan g‘oyat xushmanzara Gurkirov qishlog‘ida, o‘rtahol oilada to‘rtinchi farzand, ikkinchi o‘g‘il sifatida tavallud topgan. Jamoa xo‘jaligida uzoq yillar ish boshqaruvchi, chorvachilik fermasi mudiri vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan padari buzrukrori Kenjaboy ota Umrzoqov ikkinchi jahon urushining qatnashchisi edi.

Qamchibek qishloqdagi yagona 8 yillik maktabga 8 yoshida o‘qishga borgan. 1964-yili o‘rta maktabni bitirib, tuman “Paxtakor” gazetasi tahririyatida adabiy xodim (keyinroq yangi tashkil etilgan soha – tuman radio tashkilotchisi va muxbiri) bo‘lib ishlay boshladi va shu yili Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) filologiya fakultetining sirtqi jurnalistika bo‘limiga o‘qishga kirdi. Kelgusi yildan tahsilni fakultetning kunduzgi til va adabiyot (filologiya) bo‘limida davom ettirdi. Dorilfununni tugatib, 1969-yildan 1979-yilgacha “O‘zbekiston madaniyati” (hozirgi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”) haftanomasining avval madaniyat, keyin adabiyot bo‘limlarida o‘zining ijodkor-jurnalist maqomidagi qobiliyatini namoyon qildi.

Aslida, Qamchibek Kenjaboy o‘g‘lining mehnat faoliyati juda erta boshlangan. 6-sinf o‘quvchiligidan boshlab o‘qishdan so‘ng, yakshanba kunlari o‘zi yashab turgan Gurkirov qishlog‘i o‘ramidagi “Yuqori hosil” jamoa xo‘jaligining paxta dalalarida katta yoshdagi suvchilarga yordamchilik va boshqa yumushlarni bajarardi. 8-sinfda o‘qiyotganda esa unga mакtab kutubxonasi mudirligini topshirishgan – u katta tanaffuslarda va darslar tugagach, ya’ni tushdan keyin kutubxona ochardi. U shu mакtab qoshida tashkil topgan kechki qishloq yoshlari mакtabining 9-10-sinflarida o‘qish barobarida kunduzi yana o‘sha mакtabda laborant, pionerlar yetakchiligi, kuni uzaytirilgan gruppera tarbiyachisi, bir muddat jamoa xo‘jaligi (u paytlarda kolxozi deyilardi)da radio tarmoqlari ustasi yordamchisi vazifalarida ham faoliyat yuritgan. Toshkentda ishlab yurgan kezlarida ham u jamoatchilik ishlarida faol edi. Jumladan,

bir qancha vaqt Respublika Yosh kitobsevarlar klubiga rahbarlik qilib, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy qo‘mitasining Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan.

Oilaviy sharoit taqozosigi ko‘ra, ya’ni keksayib qolgan otasi yonida bo‘lish uchun 1979-yili Toshkentdan Andijonga qaytib, Izboskan tumani “Paxtakor” gazetasida madaniyat bo‘limi mudiri, ayni vaqtda o‘zi o‘qigan 27-o‘rta maktab qoshidagi kechki mактабда tarix, jamiyatshunoslik, ona tili va adabiyoti fanlari bo‘yicha o‘qituvchi, keyinroq O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Badiiy adabiyotni targ‘ib qilish markazining viloyat vakili lavozimlarida ishladi. 1983-yili yana Toshkentga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga ishga chaqirilib, nasr kengashiga adabiy maslahatchi etib tayinlandi.

1985-yil taqdir uni yana Andijonga olib keldi: may oyidan viloyat rahbariyati so‘roviga binoan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uni Andijon bo‘limi mas’ul kotibligiga yubordi va ushbu amalda u 20 yildan ziyodroq faoliyat ko‘rsatdi. Shu vaqt mobaynida viloyat ijodkorlari aro munosabatlarni yanada jipslashtirish, ularning yubiley va ijodiy kechalarini tashkil etib, adabiy muhitning faollashuvi, yosh qalamkashlarning unib-o‘sishiga bosh-qosh bo‘ldi.

Q. Kenjaning mas’ul kotiblik yillarda shahar va tumanlardagi havaskorlar uchun adabiy to‘garaklar faoliyati sezilarli jonlandi, ko‘paydi, bo‘lim qoshida kattalar uchun ijodiy davra vazifasini o‘tovchi “Andijon adabiy gurungi” qayta tashkil topdi. Viloyatda yashab, badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qalamkashlardan 10 nafari (Foziljon Iminov, Ergash Sobirov, Qobil Mirzo, Omina Tojiboeva, Ubaydulla Sodiqov, Munavvara Tillaboeva, Zamira Ro‘zieva, Nabi Jaloliddin, Habib Siddiq, Xurshida Vahobjon qizi) bo‘lim tavsiyasi bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi.

Shuningdek, o‘sha davr mobaynida bo‘lim tavsiyasi bilan andijonlik taniqli ijodkorlardan Olimjon Xoldor “O‘zbekiston san’at arbobi”, To‘lan Nizom “O‘zbekiston xalq shoiri, Xoldorjon Quronboev va Tursunoy Sodiqovalar “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvonlari bilan taqdirlandilar.

U Respublika Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limini boshqarish bilan birga, Viloyat Matbuot boshqarmasi huzuridagi “Nashriyot”da jamoatchilik asosida muharrirlik ham qilardi. 1996-yil aprel oyidan “Xolis” savdo-sanoat birlashmasi (ayni vaqtda ma’suliyati cheklangan jamiyat) muassisligida “Xolis” nomli ijtimoiy-ommabop haftanoma tashkil etib, 2018-yilgacha, ya’ni, 22 yil unga bosh muharrir bo‘ldi.

Q. Kenja 1993-yildan Bobur xalqaro jamoat fondining boshqaruv kengashi a’zosi sifatida uning tadbirlarida, shuningdek, ekspeditsiyalarda faol ishtirok etib keladi.

Qamchibek badiiy ijodga aksariyat qalamkashlar kabi ancha erta qiziqqan. To‘g‘rirog‘i, onasi Saltanatxon Eshonjon Maxsim qizining barvaqt va bevaqt vafoti munosabati bilan murg‘ak qalbida qatlangan alam va iztiroblarni insho etish ehtiyoji uning qo‘liga qalam tutqazgan. She’ri ilk bor 1962-yili tuman gazetasida bosilgan. Keyin viloyat va Respublika gazeta-jurnallarida, bayozlarda she’r, ocherk va publitsistik maqolalari bilan qatnasha boshlaydi.

1970-yildan uni yosh, umidli ijodkorlar sanog‘iga kirta boshladilar. 1974-yili taniqli adabiyotshunos olim, munaqqid Ibrohim G‘afurov Respublika yoshlar gazetasi sahifalarida tilagan “Oq yo‘l”ida yosh shoirni ilk bor Qamchibek Kenja adabiy taxallusi bilan atadi.

“Sog‘inch” sarlavhali birinchi she’riy kitobi qo‘lyozmasi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she’riyat kengashi yig‘ilishida ustoz shoirlar, munaqqidlar va adabiy jamoatchilik muhokamasida ijobiy baho olgach, 1975-yili G‘afur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida nashrdan chiqadi va bir qancha vaqtli nashrlarda mazkur to‘plamga ijobiy taqrizlar bosiladi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi davlat mukofoti sohibi Nazir Safarov shunday deb yozgan: “She’rining jozibadorligi, o‘zining samimiyligi jihatidan mening ko‘nglimga yaqin yana bir yosh shoir bor. U kuni kecha otaxon gazetamiz “Sovet O‘zbekistoni”da chiqqan “Do‘stimga javoblarim” sarlavhali

baquvvat she’ri ko‘pchilik diqqatini jalb etgan Qamchibek Kenjadir.” [“O‘zbekiston madaniyati” gazeta. 1977-y. 11-yanvar.].

Yosh ijodkor avvaldanoq o‘z qalamini nasrda ham charxlashga harakat qilardi. “Sharq yulduzi” jurnalining 1974-yil 4-sonida e’lon qilingan “Yashil barg” nomli dastlabki hikoyasini ham jurnalxonlar va adabiy tanqidchilik iliq kutib oldi. “Ba’zi bir hikoyalarda yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikr ishlab chiqarishdagi ziddiyatlarga yo‘g‘rilgan holda beriladi, - deb yozgan edi filologiya fanlari doktori, bo‘lajak akademik Matyoqub Qo‘shtonov. - Qahramonlar xatti-harakatlari o’sha ziddiyatlar bilan dalillanadi, bunday paytlarda hikoyanavis hayotga aktivroq aralashadi. Qamchibek Kenjaning “Yashil barg” nomli hikoyasida asar qahramonlari bir bog‘ barg, deb brigadama-brigada, kolxozma-kolxoz sarson bo‘lib yuradilar. Rais bilan agronom esa bunday paytlarda qurtboqarlardan uzoqroqda yurishni afzal ko‘radilar. Hayotda uchrab turadigan haqiqat. Tanlangan voqeaga qarab bu gazeta xabariga tegishli gaplar-ku, degingiz keladi. Biroq yozuvchi oddiy bo‘lib ko‘ringan vaziyatga tushgan qahramonning holati, psixologik tasvirga bog‘liq detallar topa olgan. Shu tufayli asar badiiylik kasb etadi”. [“O‘zbekiston madaniyati” gazetasi, 4-mart, 1975-y.]. Mazkur hikoya Moskvada chop etiladigan “Литературное обозрение” jurnali e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Yosh adibning ana shu hamda “Baliq ovi”, “Sohilda” va boshqa hikoyalari to‘g‘risida taniqli yozuvchilar Odil Yoqubov, Nosir Fozilov, Shukur Xolmirzaev, adabiyotshunos olimlar (filologiya fanlari doktorlari va nomzodlaridan Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ninel Vladimirova, Norboy Xudoyberganov, Pirmat Shermuhammedov, Yoqub Yakvalxo‘jaev, Jovli Xushboq, Hakimjon Karimov, Mihli Safarov va boshqalar) yuksak fikr bildirdilar. 1977-yili muallifning “Yashil barg” sarlavhali hikoyalar to‘plami yuzaga keldi va u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida tashkil etilgan qizg‘in muhokamada yuqori baholandi.

“Qamchibek Kenja hikoyalari ham ko‘targan muammolari jihatidan O‘tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzaev hikoyalariga ohangdosh, - deb yozadi filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov “Kichik janrning katta imkoniyatlari”

sarlavhali maqolasida. – Lekin bu yerda muammolar talqini o‘ziga xos... Q. Kenja student-yoshlar hayotidan qator yaxshi hikoyalar yozgan, ularda hozirgi yoshlar xarakteriga xos fazilat-qusurlarni nozik ifoda etgan; bu tur hikoyalarda “Baliq ovi”dagidek keskin dramatik, oshkora fojeiy hodisalar yo‘q: avtor sirtdan silliq, osoyishta ko‘ringan hodisalarning ichki dramasini ochishga intiladi, sokin kechalarda yoshlar orasida kechgan beozorgina muloqotlar zamiridagi muhim o‘zgarishlarni, xarakterlar tabiatini va taqdiridagi keskin burilishlarni topib tasvirlaydi. “Bir kecha – ming kecha” shu turdagи hikoyalardan” [“O‘zbekiston madaniyati” gaz. 1979-y. 23-yanvar.].

So‘ng birin-ketin muallifning “Ko‘ngil ko‘chalari” (1979), “Ishqing tushsa” (1981), “Orzumandlar” (1982), “Notanish gul” (1986), “Tog‘ yo‘lida bir oqshom” (1987), “Sohildagi suv parisi” (1993), “Qizil gular” (1995), “Muhabbatni gunoh desalar” (1996), “Sohibjamol ayol siri” (1996), “Xamir uchidan patir yoxud kulcha hikoyalar” (2005), 2 jildli “Saylanma”(2006-2007), “Muhabbat badali” (2010), “Bir kecha - ming kecha” (2018), “Mashaqqat va jasorat” (2015), “Palaxmon toshlari” (2011), “Dilnomalar va sirnomalar” (2022), “Armonlar va tug‘yonlar” (2023), “Inson farishta emas” (2023), “G‘am yarim, shodlik yarim” (2023) kabi – jami 50 dan ziyod she’riy, nasriy va publitsistik kitoblari, qissa va romanlari e’lon qilinadi.

Keyingi yillarda chop etilgan kitoblaridan biri “Do‘sit kimu qadrdon kim?” mo‘tabar tuyg‘ular – do‘silik, sadoqat mavzulariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif bolalik oshnolari, hayotda hamdam, hamroz bo‘lgan ko‘ngil yaqinlari, qadrdon jo‘ralari, muallim-ustozlari va unga qandaydir o‘giti, maslahati yo boshqa bir jihatdan ozmi-ko‘pmi nafi tekkan kishilar to‘g‘risida jo‘shib-toshib, maroq bilan hikoya qilar ekan, ular oldida o‘zini qarzdor, burchli tuyub, ularga sidqidildan minnatdorchilik izhor etadiki, albatta, bu ham ibratomuz bir holatdir.

Qamchibek Kenja tarjimachilik bilan ham faol shug‘ullanib keladi. Isyonkor bengal shoiri Nazrul Islom va Nirolaning “Hind shoirlari” bayozida e’lon qilingan doston hamda turkum she’rlarini, Aleksandr Bezemenskiyning “Do‘silik kutubxonasi” ruknida chiqqan “Yurak amri” she’riy to‘plami, V. Terskayaning

“Armiya farzandi” hujjatli qissasi, “DEU” korporatsiyasi prezidenti Kim U Jungning “Biznesning bapoyon olami” kitobini, “Qadimgi hind hikmatlari”ni, bolgariyalik mashhur bashoratchi va tabib Vanganing “Salomatlik lug‘ati” risolasini, qoraqalpoq adibi Kengesbay Allambergenovning “Qush haqida ertak” qissasini, bulardan tashqari, Aleksandr Pushkin, Henrix Heyne, Shandor Petefi, Valeriy Bryusov, Mixail Svetlov, VI.Firsov, Rasul Hamzatov, Petrus Brovka, Mixail Ushakov, Antal Gidash, Rafael Alberti, Agostino Neto, Mahmud Darvesh, Nikolas Gilen, Gaussi Diavara, Rene Filoktet kabi mumtoz jahon she’riyatining taniqli namoyondalari, qoraqaloq shoirlari ijodidan namunalar, bir qator xorijiy mualliflar – Eduardas Mejelaytis, Yuriy Bondarev, Mixail Sheverdin, Aleksandr Udalov, Boris Parmuzin, Konstantin Tenyakshevlarning roman va qissalaridan parchalar, Anatoliy Safronov, V.Oskotskiy, Boris Privalov, Vladimir Karpov, Boris Pankin va boshqalarning hikoya, ocherklarini, shuningdek, bir qator Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilarining turli janrdagi asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan.

Shuningdek, uning she’r va hikoyalari esa rus, ukrain, ingliz, turk, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bobur nomli xalqaro ilmiy ekspeditsiya a’zosi sifatida temuriy-boburiylar va boshqa buyuk ajdodlarimiz izidan Qirg‘iziston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Eron, Pokiston, Xitoy, Hindiston, Bangladesh, Turkiya, Suriya, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Iroq, Rossiya kabi mamlakatlarga, Boshqirdiston, Tatariston, shuningdek, Dog‘iston, Ozarboyjon, Gurjiston, Armaniston, Tog‘li Qorabog‘ va boshqa Kavkaz Rspublikalariga qilgan katta ijodiy safarlari Q.Kenjaning adabiy va shaxsiy hayotida yuz bergen jiddiy voqealar bo‘ldi, deyish mumkin.

“Ulug‘ hamyurtimiz, dunyoga dong‘i ketgan shoir va shahanshoh Zahiriddin Muhammad Boburni har qaysi ma’noda o‘z vatani Andijonga qaytarish borasida favqulorra ahamiyat kasb etgan mazkur safarlar davomida men Boburni qayta angladim, Boburiylarni yaxshiroq tanidim va qalbim g‘urur, iftixor tuyg‘ulari bilan limmo-lim to‘ldi”, deydi adib-sayyoh. Ana shu safarlar taassurotlari asosida “Hind sorig‘a”, “Andijondan Dakkagacha”, “Buyuklar izidan” (“Afg‘oniston bo‘ylab 17

kun”), “Andijondan Bag‘dodgacha”, “Buyuk sohibqiron o‘tgan yo‘llarda” nomli beshta yirik badiiy safarnoma, ulardan tashqari Bobur xalqaro jamoat fondi, ekspeditsiyasi va ularning tashkilotchi rahbari, geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, vatan uchun, millat uchun kuyib-kuyinib yashaydigan, ulug‘ ajdodlarimiz izlarini tavof qilib tolmaydigan Zokirjon Mashrabov faoliyatları haqida “Boburiylardan biri” kitobini yozdi va ular “Sharq”, “Ma’naviyat” nashriyotlarida chop etilib, kitobxonlar hamda adabiy jamoatchilik tomonidan munosib baholandi. “Boburiylardan biri” qayta ishlangan va to‘ldirilgan holatda uch bora (2000, 2014, 2022 y.) nashr qilindi.

Qamchibek Kenjaning safarnomalari borasida eslab o‘tish joizki, atoqli navoiyshunos olim, akademik Aziz Qayumov ularni “adabiyotda yangi yo‘nalish - badiiy safarnoma janri” deya baholadi mazkur turkum safarnomalardan biri - “Buyuklar izidan”ga yozgan so‘zboshisida, zabardast shoir, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov, taniqli adabiyotshunos, matnshunos olim Vahob Rahmon va boshqalar roman-safarnomalar deb atadilar. O‘zbekiston xalq yozuvchisi, atoqli adib Pirimqul Qodirov esa quyidagicha fikr bildirgan edi: “Nasrimiz rivoji to‘g‘risida so‘z ketganda, istiqlol davridagi erkinlashtirish jarayonlarida safarnoma va badia janrlarining adabiyotimizdan keng o‘rin olayotganini aytib o‘tish o‘rinlidir. Bu fikrga misol tariqasida Qamchibek Kenjaning Bobur Mirzo izidan borib yozgan “Hind sorig‘a”, “Andijondan Dakkagacha” kitoblarini... keltirish mumkin. [“O‘zbekiston madaniyati” gaz. 2005-y. 20-may].

Adib Zahiriddin Muhamad Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan ekspeditsiya safarlari taassurotlari asosida, ekspeditsiya rahbari Zokirjon Mashrabov maslahatchiliqi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, tasvirchi To‘lqin Ro‘ziev hamkorligida yaratilgan va Respublika “Doston” ijodiy uyushmasida ishlangan 3 qismli “Boburiylar izidan”, “O‘zbekiston” hujjatli filmlar studiyasi tomonidan tayyorlangan 2 qismli “Bobur salomi”, shuningdek, “Buyuk Bobur vorislari” nomli hujjatli-ommabop filmlarning ssenariy muallifidir.

Shuningdek, Qamchibek Kenja yana bir taniqli hamyurtimiz – pedagog olim va xalq tabibi, kimyo fanlari doktori, bir necha fan yaratuvchisi, kimyo sohasi bo‘yicha məktəb, o‘rta maxsus va oliv o‘quv yurtlari uchun yozilgan qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari muallifi, ellikdan ortiq fan nomzodlari va fan doktorlarining ustozisi - ilmiy rahbari, umuman xalqqa, jamiyatga, vatanga eng ko‘p naf keltirayotgan insonlardan biri Ibrohimjon Asqarov hayoti va faoliyatini yorituvchi “Jasorat”, “Mashaqqat va jasorat” kabi qissa va romanlar yozdi va ular o‘zbek, rus, ingлиз tillarida ko‘p nusxalarda bosildi. Xususan, 1950-yillarning boshlaridagi ziyolilar qatag‘oni jabrdiydalarining fojiali qismatiga bag‘ishlangan “Palaxmon toshlari” romani adabiy tanqidchilikda katta qiziqish uyg‘otdi. Jumladan, taniqli adabiyotshunos olim, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev kitobning ikkinchi nashriga yozgan “Zulm changalidagi taqdirlar tasviri” sarlavhali so‘ngso‘zida asarning g‘oyaviy va badiiy jihatlariga, yozuvchining xarakter yaratish mahoratiga yuqori baho bergan.

Qamchibek Kenjaning hozirjavob publisist sifatida viloyat va Respublika ommaviy axborot vositalarida tez-tez e’lon qilib turiladigan maqolalarida fidoyi, zahmatkash insonlar, zamonamiz kishilarining his-tuyg‘ulari ifoda etiladi, ma’naviy-mafkuraviy muammolar qalamga olinadi.

Qamchibek Kenja hayoti va ijodiy faoliyati filologiya fanlari nomzodi, adabiyotshunos To‘lqin Yo‘ldoshevning “Kamolotning olis yo‘li” monografiyası, adib Abdunabi Boyqo‘zievning “Ay, akam daryo ekan” nomli esse, esdaliklar kitobida va vaqtli matbuotda chop etilgan ko‘plab maqola, tadqiqotlarda bir qadar mufassal yoritilgan.

1974-yildan O‘zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, 1978-yildan mamlakat Yozuvchilar uyushmasining a’zosi Q. Kenjaning ko‘p yillik samarali mehnat va ijodiy faoliyati qator an’anaviy “Mustaqillik” nishonlari, “Shuhrat” medali, “Mehnat shuhrati” ordeni, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon Davlat universiteti faxriy professori

unvonlari, Xalqaro Bobur mukofoti, “Mehnat faxriysi”, “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni va boshqa yorliqlar bilan taqdirlangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Тўлқин Йўлдошев. “Камолотнинг олис йўли”. Тошкент, “Наврўз” нашр. 2014 й.
2. Абдунаби Бойқўзиев. “Ай, акам дарё экан...”. Тошкент, “Наврўз” нашр. 2016 й.
3. “Дилномалар, сир номалар”. Тошк. “Ижод принт” нашр. 2022 й.
4. “Армонлар, туғёнлар”. Тошк. “Ёш авлод матбаа” нашр. 2023 й.
5. “Инсон фаришта эмас”. Эсдаликлар. Тошк. “Ёш авлод...” 2023 й.